

Davlat rahbarining tashabbusi amalda: Surxondaryoda har kuni iftorliklar o‘tkazilmoqda



Davlat rahbarining tashabbusi amalda: Surxondaryoda har kuni iftorliklar o‘tkazilmoqda

Joriy yil 13 mart kuni Prezidentimizning Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida o‘ttiz kunlik Ramazon oyida eng og‘ir mahallalarda kam ta‘minlanganlarni taklif qilib, iftorlik o‘tkazish, ko‘ngli o‘ksik, mo‘min-musulmonlarni og‘irini yengil qilish tashabbusini ilgari surib, bu borada diniy soha vakillariga tavsiyalarini bergan edi.

Xayru-barokat oyi – Ramazon oyining ilk kundan boshlab Termiz shahri va tumanlardagi to‘yxonalar, xonadonlarda nuroniy otaxon va onaxonlar, ro‘zadorlar ishtirokida iftorliklar o‘tkazib kelinmoqda.

Bugun ham shunday saxovat tadbirlarining navbatdagisi Termiz shahri “Baynalminal”

mahallasidagi oilalarning birida o'tkazildi. Unda viloyat hokimi va sektor rahbarlari, viloyat bosh imom xatibi hamda shu mahallada yashovchi bir guruh fuqarolar ishtirok etishdi.

Iftorlikda jonliq so'yilib, imomlar tomonidan qur'on tilovat qilindi. Yakunda shunday muborak oyda yurtimizga tinchlik, osoyishtalik, Vatanimiz obodligi va oilalar faravonligini so'rab duo qilindi.

Viloyatimiz bo'ylab bu kabi xayrli ishlar Ramazon oyi oxiriga qadar davom etadi.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

